



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2024-yilning yanvar-avgust
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 25 070,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,4 % ni tashkil etdi.

yanvar-avgust
mlrd so'm



yanvar-avgust
FHI, %






■ mlrd so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (17 607,6 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (13 242,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-avgust oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 24 187,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,5 % ni, tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (41,3 %), Jomboy tumani (10,1 %), Urgut tumani (8,9 %), hamda Samarqand (7,1 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (117,3 %), Kattaqo'rg'on tumanida (112,1 %) hamda Oqdaryo tumanida (110,8 %) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2024-yil yanvar-avgust oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 10,3 % ga hamda Ishlab chiqarish 8,1 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 26,0 % ga hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 9,7 % ga pasayishi kuzatildi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 173,7 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2023-yilning yanvar-avgust oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 14,0 % (14,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 21,2 % (18,0 %) va quyi texnologiyali 60,8 % (64,3 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,5 % (2023-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 184,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi 8,9 % (2023-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % (2023-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 36,6 % (2023-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	32,5	33,1	0,6
Paxta tolasi, ming t.	31,1	30,9	- 0,2
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	13,2	12,6	- 0,6
Shag'al – ming t.	387,5	300,6	- 86,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	12,6	97,3	84,7
Tamaki – mln dona	6 536,4	7 014,1	477,7
Piva – ming litr	19 304,0	16 500,0	- 2 804,0

2024-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda tozalangan paxta yog'i mahsulotlari 12,6 ming t (2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 4,8 % ga kam) hamda 300,6 ming tonna shag'al (22,4 % kam) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2 050 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 17,4 % ga ko'paygan.



2024-yil

2 050 dona

2024-yil

117,4 %

2023-yil

1 746 dona

2023-yil

62,7 %

2022-yil


2 784 dona

2022-yil

97,1 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-avgust oylarida 518 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga kamaygan.



2024-yil

518 dona

2024-yil

99,2 %

2023-yil

522 dona

2023-yil

73,2 %

2022-yil


713 dona

2022-yil

118,4 %



Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 104,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi

8,9 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 82,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 236,4 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 88,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,5 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 184,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 624,6 mlrd so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 115,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 26,8 %, fizik hajm indeksi esa, 97,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6 726,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 120,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 304,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 18,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,0 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4 262,2 mlrd so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 114,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 102,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 752,5 mlrd so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 146,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 131,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 396,7 mlrd so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 2,2 martaga oshgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 107,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 352,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 51,4 % ni tashkil etgan..

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 2,4 martaga oshgan, hamda ishlab chiqarish hajmi 594,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 155,5 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 112,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 700,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 115,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 126,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 686,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 75,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,1 %, fizik hajm indeksi 100,9 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 2 287,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 515,4 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	72 512,3	221 466,3	148 954,0
Issiqlik energiyasi, mln gkal	3 390,0	4 654,8	1 264,8



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 193,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	34 940,1	44 450,2	9 610,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	75 592,9	92 429,4	16 836,5
Plastmassa chiqindilari, tonna	1 983,7	2 254,3	270,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 326 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 075 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,2 %) Samarqand shahriga, 738 tasi (13,9 %) Urgut tumaniga, 564 tasi (10,6 %) Samarqand tumaniga, 394 tasi (7,4 %) Pastdarg'om tumaniga va 296 tasi (5,6 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

818 ta

2024-yil yanvar-avgust

954 ta

2023-yil yanvar-avgust

1 196 ta

2022-yil yanvar-avgust



Jami faoliyat yuritayotgan (1-sentabr holatiga)

5 326 ta


2024-yil

6 127 ta

2023-yil

8 576 ta

2022-yil




■ yangi tashkil etilgan ■ faoliyat yuritayotgan



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 057,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,1 % ni tashkil etdi.

yanvar-avgust
mlrd so'm



yanvar-avgust
ulushi, % da



■ mlrd so'm ■ ulushi, %